

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«KELISHILDI»

**Oliy va o`rta maxsus ta`lim
vazirligi**

_____ 2021 y.
« ____ » _____

«TASDIQLAYMAN»

**TDIU rektori
K.A.Sharipov**



_____ 2021 y.

**5232500- Logistika (yo`nalishlar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi
negizidagi:**

5A230501-Bojxona ishi (faoliyat turlari bo`yicha)

**magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar
uchun maxsus (ixtisoslik) fanlaridan**

D A S T U R

Toshkent - 2021 yil

Annotatsiya

Dastur 5A230501 Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligining amaldagi o'quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVChILAR:

Kucharov A.S. – TDIU “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrası professori,
i.f.d.

Xo'jaev F.E. – TDIU “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrası katta
o'qituvchisi.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashi majlisining 2021 yil 30 iyundagi 13-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

KIRISH

5A230501 Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi – iqtisodiyot sohasidagi yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarning iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobilyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Ushbu mutaxassisliklar negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar; rejalashtirish ishlarini tashkil etish; xo'jalik yurituvchi sub'ektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rganish; ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalanish; mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyotga tatbiq etish; fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish; bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash; atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish; favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investisiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va

qo'llash; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash; bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish; zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish; ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish; qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish; tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish; loyihalar samaradorligini baholash; mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash; tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish; axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish; biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5A230501-Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha), magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Bojxona ishi", "Bojxona taomillari", "TIFda bojxonana o'rni", "Bojxona islohotlari va modernizasiya" va "Bojxona ma'muriyatchiligi nazaryasi va amaliyoti" fanlar bo'yicha test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

“BOJXONA ISHI” fani bo’yicha:

“Bojxona ishi” fanining predmeti va mazmuni. bojxona ishi predmeti va uning o’ziga xos xususiyatlari. Bojxona taomillarining mohiyati va ahamiyati. Bojxona ko’rigidan o’tkazilishi lozim bo’lgan tovarlar ro’yxati. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o’tkazishning mohiyati va tuzilishi. Bojxona nazoratining ob’ektlari va sub’ektlari. Bojxona nazoratini tushunchasi. Xujjatlar va ma’lumotlarning kiritish, hisobga olinish mazmuni

Buyuk Ipak yo’li orqali amalga oshiriladigan savdo aloqalarini rivojlantirishda Markaziy Osiyoda tashkil topgan bojxona ishining ahamiyati. Amir Temur va temuriylar saltanatida bojxona ishi. Amir Temur saltanatidagi bojxona ishini xorij savdogarlari uchun beriladigan imtiyozlar. Buxoro xonligida bojxona ishi. Bojxona ishida tovarlarni kelib chiqish mamlakatiga qarab bojxona imtiyozlarining berilishi. Buxoro xonligidagi bojxona ishini Rossiya bilan Afg’oniston o’rtasidagi savdo aloqalariga ta’siri. Xiva xonligida bojxona ishini paydo bo’lishi va rivojlanish tarixi. Qo’qon xonligidagi bojxona xizmatini Turkiston o’lkasi mamlakatlari o’rtasidagi savdo-sotiqni rivojlanishiga ta’siri.

O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston davlat bojxona qo‘mitasining tashkil etilishi. Davlat bojxona xizmati bilan ichki ishlar vazirligining tovar-moddiy boyliklarini O‘zbekiston Respublikasidan noqonuniy olib chiqib ketishga qarshi kurashlarini muvofiqlashtirish. O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining Davlat soliq qo‘mitasi tarkibidagi faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining qayta tashkil etilishi va unga huquqni himoya qilish organi maqomining berilishi. Bojxona organlarining asosiy vazifalarini belgilash. Bojxona qonunchiligining yaratilishi va takomillashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmatini xorijiy mamlakatlar hamda xalqaro bojxona tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarining o‘rnatilishi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy vazifalarini belgilovchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to’g’risida»gi va «Bojxona xizmati to’g’risida»gi qonunlari. Davlat bojxona qo‘mitasining funksiyalari. Respublika bojxona hududida Davlat havfsizligining jamoat tartibini himoya qilish. Kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash. Bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish. Xalqaro bojxona va savdo tashkilotlari bilan hamda xorijiy davlatlarning bojxona organlari bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish. Bojxona organlarining moddiy texnika ta’minotini takomillashtirish. Bojxona organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.

“TIFda BOJXONANING O’RNI” fani bo’yicha

“TIFda bojxonaning o’rni” fanning mohiyati va vazifalari. Tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi Bojxona xizmatining asosiy bosqichlari va uning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi tutgan o’rni. TIFda bojxona ta’minotining asosiy mazmuni, tamoyillari, funksiyalari, ob’ektlari va asosiy uslublari. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar. TIFda bojxona ta’minotini qo’llashning asosiy yo’nalishlari. TIFda bojxona xizmati ta’minotini ko’lami va samaradorligi. TIFda bojxona ta’minotiga oid normativ hujjatlarining mazmun-mohiyati. Bojxona ta’minotiga oid normativ hujjatlardan kelib chiqqan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish.

Tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini Uzbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan olib utish tartib va tartibotlarini soddalashtirish. Eksportyor va importyorlar va bojxona organi o’rtasidagi munosabat, tovarlarni tarqatish va harakatga keltirish usullari, ularning samaradorligi va bosqichlari. TIFni amalga oshirishda bojxona ishi siyosatini tizimli tahlil qilish va istiqbollashning vazifalari, usullarining mazmuni. TIFda bojxona ta’minotining afzalliklari, tamoyillari. Uzbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi, uning mohiyati va maksadi. Tashqi iqtisodiy siyosat tushunchasi va uning asosiy yunalishlari. Eksportga yunaltirilgan tovar ishlab chikaruvchilari faoliyatini ko’llab-quvvatlash. Import tovarlarini o’rnini bosuvchi tovar ishlab chikarishni yanada kengaytirish

TIF ta’minotini amalga oshirishda bojxona organlari faoliyatini tashkil va boshqarish. Uzbekiston Respublikasi Davlat bojxona tizimi doirasida yangi tahrirdagi Bojxona Kodeksini ahamiyati. Uzbekiston Respublikasining Bojxona xizmati to’g’risidagi Konunini takomillashtirish masalalari. Uzbekiston Respublikasida boj-tariflarini amalga oshirishdagi o’zgartirishlar. (Mamlakat Prezidenti Qarorlari, Farmonlari). TIFni muqobillashtirish bo’yicha bojxona maskanlari va xududiy bojxona boshkarmalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish.

TIFda bojxona ta’minotining O’zbekiston Respublikasi bozor sharoitlaridagi holati. O’zbekiston Respublikasida TIFni bojxona ta’minotining o’ziga xos xususiyatlari. TIFni tartibga solish bo’yicha O’zbekiston Prezidenti Farmon va Qarorlarining mohiyati va ahamiyati. Uzbekiston Respublikasida ichki va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona maskanlari faoliyatini liberilizatsiyalashtirish.

Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishi uchun tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda tarif va notarif tartibga solish chora-tadbirlarini takomillashtirish hamda soddalashtirishni ahamiyati. Ma’muriy to’siqlarni kamaytirish, tashqi savdo sohasidagi muddatlarni qisqartirish va tartibotlarni soddalashtirish.

“BOJXONA TAOMILLARI” fani bo’yicha:

“Bojxona taomillari” fanining predmeti va mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona chegarasida bojxona organlarini roli. Tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirish umumiy tushunchasi. Xizmatini shaffofligini ta’minlash. Tashqi savdo salohiyatini oshirish. Bojxona nazoratini tushunchasi. Xujjatlar va ma’lumotlarning kiritish, hisobga olinish mazmuni

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bevosita bojxona chegarasi orqali olib o’tishga qaratilgan harakatlar. Bojxona chegarasini kesib o’tayotgan jismoniy shaxsning bojxona nazorati zonasiga utkazish. Transport vositasining bojxona chegarasini kesib o’tish va bojxona nazoratiga olish. Jismoniy shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq belgilanmagan joylardan tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o’tishga qaratilgan harakatlari. Ichki bojxona tranziti O‘zbekiston xududiga tovarlarni olib utish, bojxona deklarasiyalarini tuldirish. Transport va yuk deklarasiyalarni rasmiylashtirish. Eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan va amalda bojxona hududidan olib chiqilgan tovar O‘zbekiston tovari maqomini yo’qotishi. Reeksport bojxona rejimida bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovar yoxud bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni qayta ishlash mahsuloti bojxona hududidan bojxona bojlari va soliqlar to’lanmagan, tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo’llanilmagan holda olib chiqib ketilishiga ruxsat berilishi. Bojxona nazorati tushunchasi, uning shakllari va amalga oshirish tartibi. Bojxona nazoratining o’ziga xos xususiyatlari. Bojxona chegarasi orqali olib o’tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o’tkazish

Fanni o’qitishdan maqsad –bojxona ishi va bojxona taomillari jarayonini tahlil qilishning murakkab bo’lgan usullari orqali turli bojxona ishi faoliyatining tamoyillari va uslublarini, bojxona ishi va bojxona tamoyillari tushunchasi, ularning maqsadi, ichki tuzilishi va tartiblari, bojxona organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari, bojxona ishi, bojxona nazorati, bojxona rasmiylashtiruvini to’g’ri amalga oshirish bo’yicha yo’nalish ixtisosligiga mos bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir.

Bojxona ishi muhitini shakllantirish omillarini, uning o’ziga xos xususiyatlarini; bojxona organlari faoliyatining har bir bosqichlari bo’yicha hisob-kitoblar o’tkazish, davlat bojxona chegaralari orqali olib o’tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalari nazoratdan o’tkazish yo’llarini va usullarini; yuklarni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish; bojxona organlari faoliyatida xalqaro konvensiyalar shartlaridan foydalanish, ekportiyor va importiyorlarga soddalashtirilgan bojxona nazorati shaklini joriy qilish, xalqaro yo’nalishlarda yuk tashishni barcha usullari to’g’risida ma’lumotga ega bo’lish va ularni amaliyotda qo’llay olish bo’yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o’rgatishdan iboratdir.

Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashuvlarining klassifikasiyalaridan, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashuvlar tipologiyasidan, shu jumladan, ularni boshqarish va rasmiylashtirish komponentlari asosida shakllanadiganlaridan, tahlil qilish jarayonlarida bojxona taomillarini, eksport import jarayonlarini tahlilini o'tkazishni, bojxona taomillarini respublikamiz tashqi iqtisodiy saloxiyatini rivojlantirishdagi roli va ular uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni, bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axbarot texnologiyalarini jalb etishning ahamiyati, bojxona organlari xodimlarini xavfsizligini davlat tomonidan kafolatlash va qo'llab-quvvatlashni, bojxona organlari faoliyat yo'nalishlari va xususiyatlarini biladi;

bojxona organlari faoliyatini ayrim parametrlarini kelajakdagi bashoratlarini hisoblash, bojxona organlari faoliyatining barcha bosqichlari bo'yicha taxlillar o'tkazish, bojxona organlari faoliyatida bojxona nazoratining zamonaviy texnologiyalarini jalb etish, bojxona nazoratining zamonaviy usullaridan foydalanish va ularni amaliyotda qo'llay olish, iqtisodiy muammolar bo'yicha echimlar qabul qiladi;

-bojxona organlari faoliyatning tamomillari va uslublari, bojxona ishi va bojxona tamomillari tushunchasi, ularni maqsad, ichki tuzilishi va klassifikasiyalari, davlatni tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati, maqsadi va ustivor yo'nalishlari, samarali tashqi iqtisodiy faoliyat muhit va uni tashkil etishning shartlari, bojxona organlari faoliyatini rivojlanish bosqichlari, eksport, importda yuk tashuvlarini bosqichlarini tahlil qilish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, bojxona nazoratini texnologik sxemalar asosida o'tkazadi.

BOJXONA ISLOHATLARI VA MODERNIZASIYA fani bo'yicha:

Bojxona islohatlari va modernizasiya fanining mohiyati va maqsad, bojxona xizmati tushunchasi, bojxona organlari tizimida islohatlar amalga oshirish, shuningdek bojxona taomillarigini soddalashtirish ahamiyati, bojxona organlarining asosiy funksiyalari, bojxona organlari faoliyatining asosiy vazifalari, bojxona ishini tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, bojxona qonunchiligini shakllanishi va ularni takomillashtirish, bojxona taomillari tizimi: tushuncha va tamoyillar bilan tanishish, uning maqsadi, bojxona islohatlari tushunchasi, bojxona taomillarini tashkil etuvchilari, shuningdek bojxona taomillarigini soddalashtirish ahamiyati, bojxona organlarining asosiy funksiyalari, bojxona organlari faoliyatining asosiy tamoyillari bilan tanishtiriladi.

Raqamli iqtisodiyot, bojxona organi faoliyatini raqamlashtirish ahamiyati, bojxona organi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, bojxona taomillarini amalga oshirishning asosiy omillari va elementlari, samarali bojxona siyosati olib borish, bojxona qonunchiligini takomillashtirish yo'llari, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish usullari, tovarlarni import qilishda tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodlari to'g'ri qo'llanilganligi to'g'risida

ekspert xulosasi, bojxona xizmatlari ko'rsatishning hozirgi holati, bojxona taomillarini asosiy yo'nalishlari, bojxona taomillarini amalga oshirishning asosiy omillari va elementlari, bojxona taomillari oldidagi to'siqlar, bojxona taomillarigini takomillashtirish yo'llari, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish usullari keltirilgan.

Bojxona xizmati jarayonlarini avtomatlashtirishga bag'ishlangan bo'lib unda bojxona faoliyatini tizimli tahlili, bojxona organi tizimining rivojlantirish yo'nalishlari va tendensiyalari, bojxona organlari faoliyatini avtomatlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bojxona nazoratini soddalashtirishni mamlakat iqtisodiyotini o'sishdagi ahamiyati, bojxona taomillarini takomillashtirish yo'nalishlari va tendensiyalari, bojxona organlarini tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha faoliyatlarini tizimli tahlilini doimiy amalga oshirib borishlari, qo'shma iqtisodiyot tushinchasi va tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlatning roli, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni tarif va notarif usullari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sifati, bojxona taomillarigini soddalashtirishni mamlakat iqtisodiyotini o'sishdagi ahamiyati haqida ma'lumot beradi.

To'rtinchi mavzu bojxona taomillarini takomillashtirish va soddalashtirishni tavsiflaydi, unda bojxona sohasida elektron hukumat konsepsiyasi, bojxona xizmatlarini taqdim etishni elektron shakllari, mamlakatlararo o'zaro savdo intensivligini oshirishda soddalashtirilgan bojxona taomillarini amalga oshirish, rivojlangan mamlakatlarda bojxona taomillarining umumiy tendensiyalari va muammolari, unda elektron hukumat konsepsiyasi, bojxona xizmatlarini taqdim etishni elektron shakllari, mamlakatlararo ma'lumotlar almashish konsepsiyasi, ma'lumotlar almashish jarayonlarining xususiyatlari, bojxona taomillari tizimini takomillashtirish jarayoni, bojxona taomillarigini takomillashtirish bosqichlari, bojxona taomillarini soddalashtirish bo'yicha Butunjahon bojxona tashkiloti doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni yoritib beradi.

Bojxona xizmati xodimlarini salohiyatini oshirish, bunda bojxona organlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, bojxona organlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarni malakasini oshirish, bojxona organlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassisligi to'g'ri kelmaydigan xodimlarni qayta tayyorlash va har doim bojxona organi xodimlariga o'quv kurslari va seminar treninglar o'tkazish ahamiyati tavsiflanadi, bojxona ishini shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, bojxona organlari tizimi, bojxona organlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari, AQSHda davlat bojxona organlarini mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, davlat bojxona organlari xodimlari faoliyatlarini shaffofligini ta'minlash yo'lidagi tajribalari,

Bojxona organlari xodimlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, bu bojxona zonasiga kirib kelgan tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazish jarayonida, bojxona to'lovlarini hisoblash jarayonida va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish jarayonida kuzatilishi mumkinligi, bojxona ishini shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, bojxona organlari tizimi, bojxona organlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari, davlat bojxona organlarini mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, davlat bojxona organlari xodimlari faoliyatlarini shaffofligini ta'minlash yo'lidagi tajribalari haqida fikrlar bayon etiladi.

Bojxona xizmatini modernizasiya qilish strategiyasi, bojxona organlari infratuzilmalarini qayta jihozlash, ichki va tashqi bojxona maskanlari, ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari, hududiy bojxona boshqarmalari va Davlat bojxona qo'mitasi, tovarlarni bojxona laboratoriya ekspertizasidan o'tkazish ob'ektlari, bojxona xizmatini innovasion rivojlantirishg ta'siri, innovasion bojxona tushunchasiga tarif berish, bojxona organlari faoliyatiga innovasion texnologiyalarni joriy etish, bojxona nazorati va bojxona rasmiyatchiligida zamonaviy axbarot texnologiyalaridan foydalanish, Davlat bojxona chegaralari olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazishda zamonaviy bojxona nazoratini texnik vositalaridan foydalanish jarayonini tasvirlaydi.

BOJXONA MA'MURIYATCHILIGI NAZARYASI VA AMALIYOTI

fani bo'yicha:

Bojxona ishini tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, bojxona qonunchiligini shakllanishi va ularni takomillashtirish. Bojxona ma'muriyatchiligi sohasida bojxona tizimi: tushuncha va tamoyillar bilan tanishish, uning maqsadi, bojxona ma'muriyatchiligi tushunchasi, bojxona ma'muriyatchiligini tashkil etuvchilari, shuningdek bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish ahamiyati, bojxona organlarining asosiy funksiyalari, bojxona organlari faoliyatining asosiy tamoyillari bilan tanishtiriladi.

Tovarlarni import qilishda tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodlari to'g'ri qo'llanilganligi to'g'risida ekspert xulosasi, bojxona ma'muriyatchiligida bojxona xizmatlari ko'rsatishning hozirgi holati, bojxona ma'muriyatchiligining asosiy yo'nalishlari, bojxona ma'muriyatchiligini amalga oshirishning asosiy omillari va elementlari, samarali bojxona ma'muriyatchiligi oldidagi to'siqlar, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'llari, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish usullari keltirilgan.

Bojxona ma'muriyatchiligi tizimining rivojlantirish yo'nalishlari va tendensiyalari, bojxona organlarini tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha faoliyatlarini tizimli tahlilini doimiy amalga oshirib borishlari, qo'shma iqtisodiyot tushinchasi va tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda

davlatning roli, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni tarif va notarif usullari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sifati, bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirishni mamlakat iqtisodiyotini o'sishdagi ahamiyati haqida ma'lumot beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda bojxona ma'muriyatchiligining umumiy tendensiyalari va muammolari, unda elektron hukumat konsepsiyasi, bojxona xizmatlarini taqdim etishni elektron shakllari, mamlakatlararo ma'lumotlar almashish konsepsiyasi, ma'lumotlar almashish jarayonlari xususiyatlari, bojxona ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirish jarayoni, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish bosqichlari, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va soddalashtirish bo'yicha Evropa, Osiyo va Amerika qit'alarining rivojlangan mamlakatlari tajribalari, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha Butunjahon bojxona tashkiloti doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni yoritib beradi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b

4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoev SH.M. 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.// Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentyabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma./Nashr uchun mas'ul R.S. Qosimov. – T: “Ma'naviyat”, 2018. - 320 bet.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.// Xalq so'zi, 2018 yil 6 iyun.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi “Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori// "Xalq so'zi", 2018 yil 8 iyun

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.

11. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2017. – 244 bet

12. “2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.12.2016 yildagi PQ-2687-son

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Urgut», «G'ijduvon» «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida” gi 2017 yil 12

**Magistraturaga kirish uchun mazkur fandan maxsus
sinov imtihonlari bo'yicha
BAHOLASH MEZONI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomning 2-ilovasi bilan tasdiqlagan "Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida NIZOM"ga ko'ra magistratura mutaxassisligiga muvofiq keluvchi ta'lim yo'nalishining maxsus fanlaridan yozma yoki maxsus test sinovlari shaklida kirish sinovlari o'tkaziladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2021-2022 o'quv yilida magistraturaga talabalikka o'qishga qabul qilish bo'yicha mutaxassislik fanlardan kirish sinovi test shaklida o'tkaziladi va test natijalari qo'yidagi mezonlar asosida baholanadi:

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov - test variantlari mazkur fan dasturi mavzulari asosida tuziladi. Talabgor uchun maxsus fanlardan sinovdagi testlar soni 50 tani tashkil qilib, har bir to'g'ri variant uchun 2 ball to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi. Jami to'g'ri topilgan testlar uchun maksimal 100 balldan iborat bo'ladi. Jami test variantlarini topshirish uchun ajratiladigan vaqt 1 soat 40 minutni tashkil qilib, har bir variant uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi.

Har bir test varianti 4 ta muqobil javoblardan iborat bo'lib, ularda 1 ta to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Test sinovlari kompyuter texnikasidan foydalangan holda o'tkaziladi va talabgor test savollarini echib bo'lgan zaxotiy oq test natijalarini bilish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'sha vaqtning o'zida test natijalari rasmiylashtiriladi hamda uzog'i bilan uch kun muddat ichida belgilangan tartibda Davlat test markazining tegishli elektron portaliga kiritiladi.

Test natijalaridan norozi bo'lgan talabgorlar test natijalaridan bilan tanishib imzo qo'ygan vaqtdan bir sutka ichida universitet qabul komissiyasi raisi nomiga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

Ushbu mutaxassislik maxsus fandan kirish sinovi-testlar uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizi (55 ball) va undan kam ball to'plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish sinovlariga kelmaganlar navbatdagi kirish sinoviga kiritilmaydi hamda magistraturaga qabul qilinmaydi.